

ABU RAYHON BERUNIY QARASHLARI BILAN TASAVVUF FALSAFASIDAGI KOMIL INSON TUSHUNCHASI QIYOSIY TAHLILI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15648166>

Ruzmetova Dilbar Nurmatovna

falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Alfraganus university "Ijtimoiy fanlar" kafedrası

Annotatsiya: Mazkur maqola Abu Rayhon Beruniy tomonidan ilgari surilgan komil inson tarbiyasi haqidagi qarashlarni tasavvuf falsafasidagi komil inson tushunchasi bilan taqqoslab tahlil qiladi. Beruniyning insonning ma'naviy o'sishiga oid g'oyalari tasavvuf falsafasidagi komil insonning etika, axloq va ma'naviyat bilan bog'liq prinsiplariga qanchalik mos kelishini aniqlash maqsadida amalga oshirilgan tadqiqot natijalari keltirilgan. Ushbu tahlil, insonning ichki rivojlanishi va tashqi muhit bilan uyg'unlikda yashashini ta'minlashda ilm-fan, falsafa va diniy tasavvuf o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Abu Rayhon Beruniy, komil inson, tarbiya, tasavvuf falsafasi, etika, axloq, ma'naviyat, ichki rivojlanish, tashqi muhit, ilm-fan, diniy tasavvuf.

Abstract: This paper provides a comparative analysis of Abu Rayhan Beruni's views on the upbringing of a perfect human and the concept of the perfect human in Sufi philosophy. The study focuses on how Beruni's ideas about the spiritual growth of individuals align with the principles of ethics, morality, and spirituality found in Sufism. The findings highlight the connections between science, philosophy, and religious mysticism in the development of inner harmony and the relationship with the external environment.

Keywords: Abu Rayhan Beruni, perfect human, upbringing, Sufi philosophy, ethics, morality, spirituality, inner growth, external environment, science, religious mysticism.

Kirish: Komil inson tushunchasi nafaqat Sharq falsafasi, balki global falsafa tarixida ham muhim o'rin tutadi. Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida insonning ma'naviy o'sishi va tarbiyasiga katta e'tibor bergan. Uning komil inson haqidagi qarashlari nafaqat ilmiy, balki axloqiy va ma'naviy jihatlarni ham o'z ichiga olgan. Tasavvuf falsafasida esa komil inson, o'zini mukammal rivojlantirgan va ichki tinchlikka erishgan inson sifatida tasvirlanadi. Ushbu maqolada Beruniyning komil inson tarbiyasi haqidagi g'oyalari va tasavvuf falsafasidagi komil inson tushunchasi taqqoslanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review): Beruniyning inson tarbiyasi va komil inson haqidagi qarashlari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Masalan, I. X. Karimovning "Beruniy va uning ilmiy merosi" asarida Beruniyning komil inson haqidagi fikrlari ilm-fan va axloqiy fazilatlarga alohida urg'u berishiga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, tasavvuf

falsafasida komil inson tushunchasi, ayniqsa, Ibn Arabi va Jilining asarlarida keng yoritilgan bo'lib, ularning fikrlariga ko'ra komil insonni yaratishning asosi, avvalo, o'zining ichki dunyosini to'liq anglashda yotadi. Bu ikkala yo'nalishdagi qarashlar orasidagi o'xshashliklar va farqlarni chuqur tahlil qilish zarur.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology):
Tadqiqotda nisbatan tarixiy va kontseptual tahlil metodlari qo'llaniladi. Beruniyning asarlari va tasavvuf falsafasiga oid asosiy manbalar tahlil qilinadi, shuningdek, tarixiy kontekstda o'zaro taqqoslash va qarama-qarshiliklarni aniqlash uchun ikkinchi darajali manbalar ham o'rganiladi. Metodologiya doirasida tasavvuf falsafasidagi komil inson tushunchasining nazariy asoslari va Beruniyning ilmiy merosi o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar aniqlanadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results):
Tahlil jarayonida Beruniyning komil inson tarbiyasi haqidagi fikrlari, tasavvuf falsafasidagi komil inson tushunchasi bilan qiyoslanganida, o'zaro ko'plab umumiy jihatlar mavjudligi aniqlandi. Beruniy uchun komil inson – ilm-fan, axloq va ma'naviyatni birlashtirgan, shuningdek, ijtimoiy mas'uliyatni tushungan insondir. Tasavvuf falsafasida esa komil inson – o'z ichki dunyosini, ruhiyatini mukammallashtirgan, Xudoga yaqinlashishga harakat qilgan shaxs sifatida qaraladi. Ikkala tushuncha ham, insonni o'zining ichki potentsialini anglashga, ma'naviy o'sishga va axloqiy fazilatlarga ega bo'lishga undaydi. Biroq, tasavvufda ko'proq mistik elementlar va Xudoga yaqinlik vurg'ulanadi, Beruniyda esa ilmiy va axloqiy jihatlar ustun turadi. Ma'lumki, Abu Rayhon Beruniy bo'yicha keng omma uni tabiatshunos olim sifatida etirof etadi. Buyuk alloma o'zining ilm-fanga bo'lgan katta hissasi va insonparvarlik fikrlari bilan tanilgan, o'rta asrlardagi o'zbek olimlaridandir. Uning inson tarbiyasi haqidagi qarashlari uning kitoblarida, maxsus falsafiy va axloqiy asarlarida aks etgan. Beruniyning inson tarbiyasiga oid fikrlari o'sha davrning axloqiy va ijtimoiy munosabatlariga bo'lgan katta e'tiborni ko'rsatadi.

Beruniyning komil inson tarbiyasi haqidagi qarashlarida Insonning aql va axloqi masalasida Beruniy insonning aqlini yuqori qadrlaydi va u insonning ma'naviy o'sishi va axloqiy komillashishi uchun asosiy omil sifatida ta'riflaydi. U axloqiy kamolotga erishish uchun ta'lim va bilimga katta e'tibor bergan. U o'ziga xos yo'lga, ma'rifatga va axloqiy mahoratga ega bo'lishni ahamiyatli deb hisoblagan [1, 12-b.]. Axloqiy tarbiya maslasida Beruniy odamlarning bir-biriga munosabatini to'g'ri yo'lga qo'yish uchun axloqiy tarbiyaga katta ahamiyat bergan. U insonlarga mehr-oqibat, halollik va adolatni qo'llashni, shuningdek, o'zining atrofidagi muhitda javobgarlikni his qilishni o'rgatgan. Shuningdek, Beruniyning "komil inson" haqidagi qarashlari falsafiy va axloqiy qadriyatlarga asoslangan. Uning fikricha, komil inson bilim va ma'rifatga ega, shunga qo'shimcha ravishda ijtimoiy va axloqiy burchlarini bajaradi. U ishonch, adolat va ma'rifatga asoslangan ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga intiladi. Ijtimoiy munosabatlar masalasida Beruniy, odamlar orasidagi to'g'ri va yomon munosabatlar, ularning yordam va hamkorlik ko'rsatishlari, muhabbat va

hurmatning muhimligini ta'kidlab, bu narsalarni barqaror jamiyat qurishning asosiy omillaridan deb bilgan. Shuningdek, Beruniyning ta'limotiga ko'ra, har bir inson o'zining o'ziga xos xususiyatlari va iqtidorlariga ega bo'lib, ularni rivojlantirishga harakat qilishi kerak. Har bir insonning potensialiga ishonish, uni rivojlantirish va o'zining oliy maqsadiga erishishga intilish, komil inson bo'lish yo'lidagi muhim omillardan biridir[2, 7-b.]. Beruniyning komil insonga oid qarashlari orqali insonning ma'naviy va axloqiy kamolotga erishishga bo'lgan intilishini, ilm-fanga bo'lgan hurmatini, insonparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat hissini mustahkamlash kerakligini ko'rsatib o'tgan. Shuni ta'kidlash joizki, Abu Rayhon Beruniyning komil inson tarbiyasi haqidagi qarashlari bilan tasavvuf falsafasidagi komil inson tushunchasi o'rtasida bir qator o'xshashliklar va farqlar mavjud[3, 12-b.]. Bu ikki yo'nalishning umumiy maqsadi insonning ma'naviy o'sishi va ma'rifatga erishishini ta'minlashga qaratilgan, ammo ularning asosiy ta'limlari va yo'nalishlaridagi farqlar ayrim falsafiy yoki diniy nuqtai nazardan kelib chiqadi. Masalan: O'xshashliklar:

Komil insonning ma'naviy kamolotga erishishi: Har ikkala qarash ham komil insonni ma'naviy kamolotga erishishda ko'radi. Beruniyning fikricha, komil inson ilm va axloqni muvozanatda egallagan, jamiyatga foydali bo'lgan insondir. Tasavvufda esa komil inson o'zining ma'naviy yo'lida rivojlanishini davom ettirgan, Alloh bilan mukofotlanishga erishgan, butun xayotini ma'naviy va ruhiy kamolga bag'ishlagan shaxsdir. Axloq va ma'rifat: Beruniy ham, tasavvuf ham axloqiy kamolotga katta ahamiyat bergan. Beruniy axloqiy qadriyatlar, adolat, hurmat, mehr-oqibatga e'tibor qaratgan bo'lsa, tasavvufda buning uzviy davomidek sanaladi. Tasavvufda komil insonning maqsadi — haqiqatga yetishish va insonlarning yaxshilikka yo'nalishini ta'minlash.

Jamiyatga xizmat: Beruniyning fikricha, komil inson jamiyatda adolat va yordam ko'rsatish bilan shug'ullanishi kerak. Tasavvufda ham komil insonni jamiyatga foyda keltirishga harakat qilish, hayotini boshqalarga yordam berishga bag'ishlash tavsiya qilingan.

Farqlar: Ilm va ma'rifat: Beruniyning komil inson tushunchasi ilm va axloqqa asoslanadi. U ilm-fan, bilimga yoki astronomiya, geografiya kabi tillardagi bilimlarni egallashga intiladi. Uning nazariy qarashlari ilmni jamiyatga foyda berish va insonlarning intellektual kamolotini ta'minlashga qaratilgan. Tasavvufda esa komil inson ma'rifatga erishish yo'lida ruhiy bilimni o'zlashtiradi, Allohga ishongan holda, uning hozirligini his qilib, ish-amallarida mukammal kamolga yetishadi.

Dunyo va oxirat: Beruniy dunyovi bilim va axloqqa e'tibor qaratgan. U insonlarni dunyoda foydali bo'lishga, yaxshi ishlar qilib yashashga da'vat etgan. Tasavvufda esa komil inson oxirat hayotiga va Alloh bilan ma'naviy aloqaga ahamiyat beradi. Unga ko'ra, insonning asosiy maqsadi Alloh bilan haqiqiy birlashish va uning irodasini tutishdir. Ruhiy yo'l va axloqiy kamolot: Tasavvufda komil insonning ma'naviy yo'li turli ruhiy mashqlar, zikr va ibodatlar orqali rivojlanadi. Uning maqsadi ruhiy ozodlik va Allohga qulligini aniq anglashdir.

Beruniyda esa bu ruhiy yo'lga jiddiy e'tibor berilmaydi. Uning qarashlari ko'proq aql, ilm va ijtimoiy ma'rifatga asoslangan.

Dunyoning o'рни: Beruniyda dunyo va uning taqsimoti axloqiy jihatdan ko'rib chiqiladi. U insonning ilm va axloq bilan jamiyatga xizmat qilishiga intiladi. Tasavvufda esa dunyo ahamiyatga ega emas, balki u vaxiy va ruhiy kamolotga yo'l topish uchun faqatgina vosita sifatida qabul qilinadi.

Komil inson tushunchasi Beruniyga ko'ra, kamol topgan inson – bu nafsni tuzatish, o'ziga va jamiyatga foyda keltirish yo'lida harakat qiladigan shaxsdir. Tasavvufdagi "komil inson" tushunchasi ham axloqiy kamolotga, ruhiy rivojlanishga asoslanadi. Bu o'zaro aloqada bo'lgan qarashlar, bir tomondan, insonning ma'naviy o'sishi uchun zarur shart-sharoitlar va unga yo'l ko'rsatuvchi yo'nalishlarni aniqlaydi.

Shuningdek, komil inson tushunchasi Beruniyga ko'ra, kamol topgan inson – bu nafsni tuzatish, o'ziga va jamiyatga foyda keltirish yo'lida harakat qiladigan shaxsdir. Tasavvufdagi "komil inson" tushunchasi ham axloqiy kamolotga, ruhiy rivojlanishga asoslanadi[4, 9-b.]. Bu o'zaro aloqada bo'lgan qarashlar, bir tomondan, insonning ma'naviy o'sishi uchun zarur shart-sharoitlar va unga yo'l ko'rsatuvchi yo'nalishlarni aniqlaydi.

Komil Insonning axloqiy asoslarida Beruniyga ko'ra, odamning axloqiy rivojlanishi uning to'g'ri tarbiyasiga bog'liqdir. U ko'p hollarda yoshlarga axloqiy va ma'naviy tarbiya berishning ahamiyatiga e'tibor qaratgan. Uning fikricha, komil insonning xarakteri adolat, sofdik, ifodalashning to'g'riligi va axloqiy mustaqillikka asoslangan bo'lishi kerak.

Komil inson va ijtimoiy ravishda qiyoslashda Tasavvufda komil insonning tashqi dunyo bilan bo'lgan munosabatlari va jamiyatdagi o'рни ham muhim ahamiyatga ega. Beruniyning ilmiy qarashlari, ijtimoiy adolat va umumiy manfaatga ko'maklashishning asosiy xususiyatlari sifatida ko'rsatiladi. Bu, o'z navbatida, "komil inson" tushunchasi bilan bir holda jamiyatga foyda keltirishga yo'naltirilgan ma'naviy kamolotni taqozo qiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations):

Mazkur tahlil Beruniy va tasavvuf falsafasidagi komil inson tushunchalarining o'xshashliklari va farqlari haqida muhim xulosalar chiqardi. Beruniy komil inson tarbiyasiga ilm-fan va axloqiy mas'uliyatni asos qilib olishni ta'kidlagan bo'lsa, tasavvuf esa insonning ruhiy rivojlanishiga alohida e'tibor qaratadi. Har ikki tizim ham insonning ma'naviy o'sishiga katta ahamiyat beradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, zamonaviy jamiyatda bu g'oyalarni integratsiya qilish, yoshlarni tarbiyalashda ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Abu Rayhon Beruniyning komil inson tushunchasi va tasavvufdagi komil inson tushunchasi bir-biriga o'xshash ma'naviy maqsadlarga ega bo'lsa-da, ularning yo'nalishlari, nazariy asoslari va insonni tarbiyalash usullari o'rtasida ayrim farqlar mavjud. Beruniyning yozganlarida insonning ma'naviy va axloqiy kamoloti ko'proq dunyoviy bilim va ijtimoiy axloqga asoslansa, tasavvufda komil inson Allohga qullik va ruhiy kamolotga intilishga e'tibor qaratilgan.

Beruniyning komil inson haqidagi fikrlari asosida, har bir shaxsning tarbiyasi uning axloqiy kamolotini belgilaydi. Shuning uchun, ta'lim va tarbiyaga ahamiyat berish jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti uchun muhimdir.

Tasavvufda nafsni tuzatishga katta ahamiyat beriladi. Bu nuqtai nazardan, Beruniyning komil insonga oid qarashlaridan biror ma'naviy rivojlanishda nafsni to'g'ri yo'lga solish muhim ahamiyatga ega.

Komil insonning jamiyatga foyda keltirishi ham muhimdir. Beruniyning ijtimoiy adolat, axloq va ma'naviy taraqqiyotga qarashlari ham jamiyatdagi shaxslar o'rtasida o'zaro hurmat va muvozanatni ta'minlaydi.

Tasavvufdagi "komil inson" tushunchasi Beruniyning ilmiy va axloqiy qarashlaridan ilhom olish mumkin. Islomdagi komil inson "pir", "valiy" yoki "ustoz" sifatida ko'rilsa, Beruniyning fikrlarida insonning axloqiy va ma'naviy rivoji, nafsni tuzatish hamda jamiyatga foyda keltirish kabi masalalar ko'tariladi.

Beruniyning komil inson tushunchasi, tasavvuf falsafasidagi axloqiy va ma'naviy rivojlanish nuqtai nazaridan muhim o'rin tutadi. Uning fikrlariga ko'ra, insonning ma'naviy taraqqiyoti, nafsni tuzatish va jamiyatga foyda keltirish uchun ma'naviy tarbiyaga alohida e'tibor qaratilmog'i kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ramatov, J.,. (2020). Theoretical and ideological sources of beruni's philosophical views. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 1974-1980.
2. Умарова, Р. Ш. (2019). Бытие и философские взгляды Абу Райхана Беруни. *Достижения науки и образования*, (3 (44)), 32-33.
3. Ramatov, J., (2021). Central Asia in IX-XII Centuries: Socio-political Situation, Spiritual and Cultural Development. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(04), 148-151.
4. Ramatov, J.,. (2022). THE PROCESS OF CIVILIZATION AND IMPORTANT CHANGES IN LIFE. *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal*, 1(6), 243-246.
5. Ramatov, J.,. (2022, June). Evolution of railway construction development in Uzbekistan: Past and prospects. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p.
6. Uralov, D., & Shodmonova, L. (2024). IBN SINONING INSON VA MA'NAVIY KAMOLOT MASALASIGA MUNOSABATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(26), 334-338.
7. Uralov, D. (2021). TALABA-YOSHLAR ONGIDA MA'NAVIY BO'SHLIQNI TO'LDIRISHDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9), 962-966.
8. Ramatov, J., (2022). PROBLEMS OF INFLUENCE OF ISLAM ON CONSCIOUSNESS TRANSFORMATION. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 591-597.